

GEOGRAFIYA FANI HAYOTDAGI O'RNI

G'ijduvon tuman 2- son Kasb-hunar maktabining

GEOGRAFIYA fani o'qituvchisi

AMONOVA NARGIZAPOSHSHO

Tel: (90)5014809

Annotatsiya : Yer yuzasining manzarasini Geografiya so'zi bilan ifodalaganlar. tibbiy Geografiya, rekreatsiya va harbiy Geografiyaham kiradi. Keyingi yillarda, koinotni o'rganish rivojlanishi bilan selenografiya (Oy Geografiyasi), kosmos yershunosligi kabi sohalar ham vujudga keldi. Yer sun'iy yo'ldoshlari va kosmik kemadan turib Yer yuzasining suratini olish va haritasini tuzish usullari ham yaratildi. Geografiya eng qadimgi fanlardandir

Kalit so'zlar: Geografiya, eng qadimgi, tabiiy, Yer yuzida, , Quyosh, Atlantika, Yevropa, Geodeziya, Shimoliy afrikalik, O'rta Osiyoda, Ekologik-geografik, Mikroiklimiy, Tuproqlar

Geografiya yoki **jo'g'rofiya** (yunoncha **Geo** ($\gamma\eta$))

yoki **Geya** ($\gamma\alpha\iota\alpha$) — "**Yer**" hamda **grafein** ($\gamma\rho\alpha\phi\epsilon\iota\nu$) — "**tasvirlamoq**" yoki "yozmoq yoxud "xaritalamoq") — Yerning geografik qobig'i, uning struktura va dinamikasi, alohida komponentlarini hududlar bo'yicha o'zaro ta'siri va taqsimlanishini o'rganadigan fanlar majmui. Antik dunyo g'arb olimlari Yer yuzasining manzarasini Geografiya so'zi bilan ifodalaganlar. Geografiya terminini dastlab Eratosfen (mil. av. 276—194 yillarda yashagan) kiritgan. O'rta Osiyoda 9— 10-asrlardan boshlab Geografiya so'zi ma'nosida „surati arz“, „etti iqlim“, „Kitob almasolik valmamolik“ („Mamlakatlar va masofalar kitobi“) iboralari qo'llanilgan. 19-asrda va 20-asr boshlarida o'zbek tilida Geografiya arabcha talaffuz bilan „jug'rofiya“ shaklida yozilgan. Keyinroq Geografiya shakli rasmiy tus oldi. Hoz. davrda „Geografiya“ o'rniga „Geografiya fanlari sistemasi“ iborasini qo'llash ilmiy jihatdan to'g'riroqdir.

Geografiya fanlari sistemasi 3 asosiy tarmoqqa bo'linadi: a) tabiiy, ya'ni tabiiy geografik fanlar — ularga tabiiy geografiya (umumiy yer bilimi, landshaftshunoslik va paleogeografiyani o'z ichiga oladi), geomorfologiya, iqlimshunoslik, quruqlik gidrologiyasi, okeanologiya, glyatsiologiya, geokriologiya, tuproklar Geografiyasi va biogeografiya kiradi; b) ijtimoiy va iqtisodiy geografik fanlar — umumiy va regional iqtisodiy Geografiya, xo'jalik tarmoqlari Geografiyasi (sanoat Geografiyasi, qishloq xo'jaligi Geografiyasi, transport Geografiyasi va b.), aholi Geografiyasi, siyosiy Geografiya; v) haritagrafiya. Undan tashqari Geografiyaga mamlakatshunoslik, tibbiy Geografiya, rekreatsiya va harbiy Geografiyaham kiradi. Keyingi yillarda, koinotni o'rganish rivojlanishi bilan selenografiya (Oy Geografiyasi), kosmos yershunosligi

kabi sohalar ham vujudga keldi. Yer sun'iy yo'ldoshlari va kosmik kemadan turib Yer yuzasining suratini olish va haritasini tuzish usullari ham yaratildi. Geografiya eng qadimgi fanlardandir. Odamzod paydo bo'lgandan keyin muayyan davr o'tgach, tabiiy muhit bilan jamiyatning o'zaro munosabatlari natijasida, ovchilik, yerni ishlash va savdo-sotiq ehtiyojlariga ko'ra yaqin-uzoq masofalarga borib kelish, tevarak-atrofni bilish va turli-tuman xalklar o'rtasida o'zaro muomala qilish boshlangan. Odamlar ilmiy-amaliy maqsadlarda dengiz yo'llarini va joylarning tabiatini, xo'jaligi va xalqlarini o'rganib turganlar. Shu yo'llar bilan geografik ma'lumotlar to'plangan, devor va toshlarga bitilgan, qog'ozga yozilgan. Mil. av. qadimgi dunyoning madaniyat markazlarida (Turon, Shimoliy Hindiston, Xitoy, Bobil va Ossuriya, Misr va Yunonistonda) dastlabki ilmii xulosalarga erishildi. Doira 360 gradusga bo'lindi, sutka 24 soat deb belgilandi, geografik kenglik va uzunlik ifodalari yuzaga keldi. Yer shar shaklida degan fikr maydonga keldi (yunon olimlari Fales, Pifagor, Eratosfen va Aristotel), dastlabki globus va ibtidoiy harita yasaldi (Anaksimandr), dunyo qit'alariga nom berildi. Iskandariyalik matematik va geograf Eratosfen (mil. av. 3-asrda) Yer aylanasining uzunligini o'lchab ko'rgan va Yer meridianining (hoz. o'lchov birligida) 39816 km ligini aniqlagan. Bu esa haqiqiy uzunligiga ancha yaqindir. Yer yuzida issiq, mo'tadil va sovuq mintaqalar borligi, ya'ni geografik zonallik tushunchasi ham qadimgi dunyo Geografiyasining nazariy yutuqlaridandir. O'sha davrda ba'zilar Yer yuzida suvlik ko'p desalar, boshqalar, aksincha, quruqlik ko'p der edilar. Shuningdek, Quyosh bilan Yerning munosabati xususida ham ikki mulohaza bo'lgan. Ayrim olimlar (ayniqsa Ptolemey) olamning markazini Yer hisoblab, Quyosh va sayyoralar esa uning atrofida aylanadi (geotsentrik nazariya) desalar, boshqa olimlar geliotsentrik nazariyani ilgari surdilar, ya'ni olamning markazi Quyoshdir, Yer va b. sayyoralar uning atrofida aylanadi deganlar. Aleksandr (Iskander Makduniy)ning Eron, Turon va Hindistonga yurishlari hamda finikiyaliklarning O'rta dengiz va Afrika tevaragidagi suzishlari geografik tasavvurlarni birmuncha kengaytirdi. Umuman, yunon olimlari Sharqdagi ilm-fan markazlarining yutuqlaridan xabardor bo'lganlar va ulardan o'z asarlarida foydalanganlar. Strabon (mil. av. 63 yil — mil. 21 yil) dunyo Geografiyasidan 17 jildli kitob yezdi (2 jildi umumiy Geografiya, 8 jildi — Yevropa, 1 jildi — Afrika, 6 jildi — Osiyo), Klavdiy Ptolemey (90—168 yillar) Geografiya va haritagrafik proyeksiyalarga doyr 8 jild kitob yezdi. Turonlik va eronliklarning muqaddas kitobi Zend Avestoda ayrim geografik ma'lumotlar bor. Unda dunyodagi mamlakatlar — Eronvej, Sugd, Muru (Marv), Baxdi (Baqtriya), Nisoim (Jan. Turkmenistan), Ho'ruyu (Xiro), Hafta Hendu (Yetti Hindiston) va b. tilga olingan, ba'zilar ta'riflangan.

O'rta asrlarda vizantiyalik Zemarx (6-asr) Sharqiy Dashti Qipchoqqa sayohat qildi, normanlar (skandinaviyaliklar) 9—10-asrlarda Atlantika okeanining shimolida suzib, Islandiya, Grenlandiya va Shimoliy Amerikagacha safar qildilar, rus pomorlari

Shimoliy Muz okeanidagi ayrim orollarni o'zlashtira boshladilar. 13-asr o'rtalarida Fransiya qiroli Lyudovik IXning elchisi sifatida O'rta Osiyoga Rubruk kelib ketdi, italiyalik Plano Karpini Mongoliyagacha yetib bordi. O'rta asrlarda yevropaliklarning geografik tasavvurlariga eng katta ta'sir etgan voqea — Marko Poloning 25 yil davom etgan Xitoy sayohati (13-asr oxiri) bo'ldi. O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida madaniyatning yuksalishi, bir qancha mustaqil davlatlarning barpo etilishi, savdo-sotiq avj olishi natijasida Turkiya, Iroq, Eron, Hindiston va Movarounnahrda Geografiya fani ancha rivoj topdi. Uning eng yirik namoyandalaridan biri Muhammad ibn Muso Xorazmiy (8-asr oxiri — 9-asr o'rtalari) Geografiyaga doyr „Surat ul-arz“ kitobini yezdi. Unda dunyodagi 537 shaharning koordinatalari va qisqacha izohi berilgan. Aslida bu kitob kattagina bir geografik atlasning izohnomasi bo'lgan. Xorazmiy bu kitobini yozishda Ptolemeyning „Geografiya“ asaridan qisman foydalangan. Bu bilan qadimgi dunyo Geografiyasining merosi saqlab qolindi. 9-asrdan e'tiboran arab va fors tillarida yaratilgan barcha geografik asarlar Xorazmiy kitobiga asoslangan. Shunday qilib, Xorazmiy butun Sharq Geografiyasining asoschisi bo'lib qoldi. Ahmad Farg'oniy (9-asr) va Abu Abdulla Jayxoniy (9—10-asr)lar ham geografik asarlar yaratishdi. Farg'oniy Misrdagi Nil daryosi suvining sathini kuzatish uchun Qohira shahri yonida „miqyos jadidi“ — nilometrni yaratganini alohida ta'kidlash lozim. Bundan tashqari Quyosh tutilishi, Yerning yumaloq shaklda ekanligini isbotlagan. Yerning o'lchamlari to'g'risida hoz. zamon ma'lumotlariga juda ham yaqin bo'lgan kattaliklarni ishlab chiqqan. Abu Zayd ibn Sahl Balxiy (850—934) „Suvor ulaqolim“ („Iqlimlar surati“) geografik asarini yozib, unga ko'pgina haritalarni ilova qildi, Abu Zayd asarini eronlik Istahriy va Ibn Havqal yana kengaytirib, „Kitob almasolik valmamolik“ asarini yozdilar. 10-asrda yashagan arab geograflari Mas'udiy va Muqaddasiylar, 12-asr olimi Idrisiy o'z zamonasi ahdini dunyo Geografiyasi bilan tanishtirishda katta xizmat qildilar. Sharq Geografiyasi faniga Beruniy va Ibn Sinoning ta'siri juda katta bo'ldi. Beruniyning barcha yirik asarlari („Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“, „Hindiston“, „Mineralogiya“, „Geodeziya“, „Ma'sud qonuni“) ko'p jihatdan Geografiyaga taalluqli. Beruniy Sharqda birinchi bo'lib globus yasadi, „Ma'sud qonuni“ kitobida 603 joyning geografik koordinatalarini aniqlab yozdi, boshqa bir kitobiga dunyo haritasini ilova qildi. Beruniy Hindistonda turib, Yer aylanasining uzunligini o'lchadi. „Geodeziya“ kitobida Amudaryoning oqimi o'zgargani va Qoraqum cho'lining paydo bo'lishini tasvirladi va h. k. U nazariy jihatdan ilk bor g'arbda, Atlantika okeani ortida katta quruqlik mavjudligini ta'kidlagan. 5 asrdan so'ng yevropaliklar bu quruqlikning Amerika qit'asi ekanligini kashf etganlar. 11-asrda balxlik Nosir Hisrav 7 yil davomida sayohat qilib, 15 ming km yo'l bosdi — Movarounnahrda Afrika shim.gacha, Arabiston va Hindistongacha sayohat qilib, „Safarnoma“ kitobini yozdi. Maxmud Koshg'ariy Markaziy Osiyodan Kichik Osiyo yarim orolgacha kezib, turkiy qabilalarning tili, urf-odatlarini, shaharlari,

daryo-ko'llari, tog'yaylovlarini tasvirlagan „Devonu lug'otit turk“ asarini yozib qirdirdi. Kitobga dunyo haritasi ham ilova qilingan. 13-asr boshida Marv sh.da (hoz. Turkmanistonning Mari sh.dan 30 km sharada) yashagan Abdulla Yoqut Hamaviy „Mujam ul-buldon“ geografik lug'atini yozgan. Shimoliy afrikalik (marokashlik) arab Ibn Battuta 14-asrning eng mashhur sayyohidir, u 25 yil mobaynida 100 ming km dan ortiq masofani kezib chiqdi — Arabiston ya. o., Hindiston, Xitoy, Sumatra o., Movarounnahr, Janubiy Yevropa va Sahroi Kabirni sayohat qildi. 15-asr boshlarida Samarqand rasadxonasida temuriy hukmdor Mirzo Ulug'bek rahbarligida astronomik va geografik jadvallar tuzi l di. Ali Qushchi Samarqandda va Istanbulda geografik asarlar yozdi. 16-asr boshida Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonga kelib, mashhur tarixiy-geografik asar — „Boburnoma“ni yaratdi. 15-asr o'rtasi — 17-asrda Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida deyarli barcha materiklarning shakli belgilandi, yer yuzasining katta qismi tadqiq qilindi, noma'lum mamlakatlarning tabiati va xo'jaligi haqida ma'lumotlar olindi. 17-asrning 1- yarmida yashagan gollandiyalik geograf B. Vareniusning „Umumiy geografiya“ kitobi o'sha davrning eng yirik geografik asari bo'ldi. Varenius birinchi bo'lib Yer haqidagi bilimlar sistemasidan umumiy geografiya va xususiy regional geografiyani ajratdi. 16—17-asrlarda haritagrafiya bo'yicha katta muvaffaqiyatlarga erishildi, haritagrafik proyeksiyalar ishlab chiqildi (Geografiya Merkator). 18-asr oxiri va 19-asr davomida Afrika, Janubiy Amerika, Avstraliyaning ichki rayonlarida geografik tadqiqotlar olib borildi. 19—20-asrlarda Markaziy Osiyoda ilmiy tadqiqotlar qilindi.

Tabiiy geografiya. O'zbekistonda, bu-tun O'rta Osiyodagi kabi, o'lkaning ta-biiy sharoiti hamda tabiiy resurslarini kompleks tadqiq etish va geografik g'oyalarning bu jarayon bilan bevosita bog'liq holda rivojlanishi 4 asosiy ilmiy yo'nalishda amalga oshib, takomillasha bordi. Bular: qiyosiy-tasviriy, tabiiy-tarixiy, ekologik-geografik va regional landshaftshunoslik yunalishlaridir.

O'rta Osiyoda tabiiy-geografik tadqiqotlarning qiyosiy-tasviriy (tasviriy geografiya) yo'nalishi 19-asrning 2-yarmi — 20-asr boshida vujudga keldi. Turli hududlarning geografik tasvirini yaratishda P. P. Semyonov-Tyanshanskiy, I. V. Mushketov, A. P. Fedchenko. V. A. Obruchev, V. I. Masalskiy va L. S. Berg kabi rus tabiatshunoslari hissa qo'shdilar. Bu yo'nalish N. L. Korjnevskiyning qiyosiy-tasviriy geografik tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Respublikada bu ilmiy yo'nalishda N. G. Mallitskiy, O. Yu. Poslavskaya, N. D. Dolimov, M. Q. Qoriyev, O. A. Mo'minov ko'p yillar ilmiy faoliyat ko'rsatib, o'lkaning turli qismlari va butun O'zbekistonni tabiiy geografik tasvirlashga munosib hissa qo'shdilar.

O'zbekistonda geografik tadqiqotlarning tabiiy- tarixiy yo'nalishi 20- a. boshida o'lkani ruslar tomonidan o'rganish jarayonida shakllandi. Bu ilmiy yo'nalish turli hududlar tuproq va o'simlik qoplamini landshaftlar fonida majmuali o'rganish

metodikasi va metodologiyasiga asoslangan va uning yirik markazi Oʻrta Osiyo Davlat universiteti tarkibidagi Tuproqshunoslik va geobotanika instituti edi.

Ekologik-geografik yoʻnalish 1920—30yillarda shakllandi.

Bu yoʻnalishning vakillari ekolog va geograflar D. N. Kashkarov (1878—1941) va Ye. P. Korovin (1891-1963) edi. Oʻrta Osiyo choʻllari va baland togʻlari oʻziga xos tabiiy kompleks va „hayot makoni“ sifatida qiyosiy ekologik va geografik jihatdan oʻrganildi. Bu maktabning ilmiy gʻoyalarini yangi yuqori bosqichga koʻtarishda Oʻzbekiston akademiklari zoekolog T. 3. Zohidov va botanik-geograf hamda ekolog Q. 3. Zokirovlar salmikli hissa qoʻshdi. T. 3. Zohidov choʻllar ekologik biotsenologiyasi, Q. 3. Zokirov esa Oʻrta Osiyo fitoekologiyasi, oʻsimlik qoplamini ekologik toifalashtirish hamda integral balandlik mintaqalari (choʻl, adir, togʻ, yaylov)ni ajratish masalalari boʻyicha oʻz yoʻriqnomalarini yaratdilar.

Regional landshaftshunoslik yoʻnalishi yuqoridagi uch kompleks yoʻnalish va koʻplab tarmoq geografik yoʻnalishlarning sintezi sifatida vujudga keldi. Bu yoʻnalishga doyr ilk tadqiqotlar 1929—30 yillarda olib borildi. Oʻrta Osiyo kompleks tabiiy-tarixiy rayonlashtirildi va ayrim yirik hududlarning landshaft haritalari tuzildi. 1943-yil Oʻrta Osiyoning ekologik tamoyillar asosida majmuali geografik rayonlashtirish konsepsiyasi va sxemasi yaratildi. 1950-yillar oxiridan Oʻrta Osiyoni tabiiy rayonlashtirish va landshaft haritalarini yaratish bilan Oʻrta Osiyo davlat universitetining geograf olimlari shugʻullandilar. 1960—70 yillarga kelib, Oʻzbekistonda mahalliy landshaftshunos olimlarning safi shakllandi. Ular Moskva (P. B. Baratov, A. A. Rafikov, M. U. Umarov, P. N. Gʻulomov, A. Mamatov, B.O. Baxriddinov, O. Raxmatullayev, S. Abdullayev, I. Abdugʻaniyev), Sankt-Peterburg (A. Saidov, M. Rasulov, Sh. Ergashev, T. Rahimov, Yu. Sultonov), Lvov (L. Alibekov, T. Jumaboyev), Voronej (A. Abdulqosimov), Boku (S. A. Nishonov), Ashxobod (I. Nazarov), Qozon (T. Ollonazarov) va Toshkent (Sh. S. Zokirov, I. A. Hasanov, A. Zayniddinov, A. Soatov) landshaftshunoslik maktablariga mansubdirlar. Ularning har biri muayyan hududlarni rayonlashtirish va landshaft xususiyatlarini tahlil qilish, tabiiy resurslarni baholash bilan shugʻullandilar. Meliorativ geografiya (A. A. Rafiqov, I. A. Hasanov), rekreatsiya geografiyasi (3. Mahamatillayev, A. Zokirov), landshaftlar rekultivatsiyasi (H. Vahobov) va geokimyosi (I. N. Stepanov, Oʻ. Abdunazarov, H. Maʼsudov) boʻyicha ham tadqiqotlar oʻtkazdilar.

Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti tarkibidagi Geografiya ilmiy tadqiqot boʻlimi 1958-yildan boshlab geografik tadqiqotlar olib bordi.

Tabiiy geografiya, landshaftshunoslik va ekologiyaga doyr tadqiqotlar Toshkent sh.dan tashqari Samarkand (L. Alibekov, A. Abdulkrsimov, O. Rahmatullayev), Jizzax (S. A. Nishonov), Fargʻona (O. Yu. Sultonov, A. Maqsudov, I. Abdugʻaniyev), Buxoro (I. Nazarov), Qarshi (A. Mamatov, S. Abdullayev) va b. shaharlarda ham olib boriladi.

Geomorfologiya. O‘zbekistonda geomorfologiya va u bilan bog‘liq to‘rtlamchi davr shakllanishi geomorfolog Yu. A. Skvorsov va geolog N. P. Vasilkovskiyar nomi bilan, Respublika geomorfologiyasining keyingi yutuqlari geograf-geomorfologlardan — O. Yu. Poslavskaya, N. A. Kogay, G. F. Tetyuxin, M. M. Mamatqulov, E. D. Mamedovlarning ko‘p yillik tadqiqotlari bilan bog‘liq.

Meteorologiya va iqlimshunoslik. Bu soha bo‘yicha respublikada mumtoz iqlimshunoslik (klimatografiya), sinoptik meteorologiya va dinamik iqlimshunoslik, mikroiqlimshunoslik, agrometeorologik hamda agroiqlimshunoslik, bioiqlimshunoslik va shahar iqlimshunosligi ilmiy yo‘nalishlari vujudga keddi.

Mikroiqlimiy va agrometeorologik tadqiqotlar 20-yillarda Mirzacho‘lda voaha iqlimini o‘rganishga doyr ishlar bilan boshlandi. 1950- yillardan O‘rta Osiyo davlat universitetida agrometeorologiya, yerga yaqin havo qatlamlari fizikasi bo‘yicha muntazam tadqiqotlar olib borildi va unda L. N. Babushkin, A. T. Muqminova, M. A. Orifxonova kabi ko‘plab meteorolog hamda iqlimshunoslar ishtirok etdi. Agrometeorologik va agroiqlimiy tadqiqot ishlarini rivojlantirishga S. A. Sapojnikova, F. A. Muminov, D. Matmurodov, A. S. Hasanov, A. Abdullayev kabi tadqiqotchilar ham munosib hissa qo‘shdilar.

Sinoptik meteorologiya va dinamik ikdimshunoslikka doyr ishlar Toshkentda V. A. Jorjio, V. A. Bugayevlar faoliyati (1930—60 yillar) bilan bog‘liq.

B. A. Ayzenshtat O‘rta Osiyo landshaftlari, xususan qumli cho‘llarning balansini o‘rganish bilan shug‘ullandi.

Gidrologiya. O‘rta Osiyo gidrologiyasi bilan E. M. Oldekop va L. K. Davidovlar, 1950—70 yillarda tog‘ gidrologiyasi bilan V. L. Shuls shug‘ullandi. U O‘rta Osiyoni geografik-gidrologik tamoyillar asosida rayonlashtirdi va o‘lka suv oqimining asosiy qonuniyatlarini bayon etdi. V. L. Shulsning rahbarligida L. I. Shalatova, I. R. Alimuhamedov gidrolog tadqiqotchilar yetishib chikdi.

O‘rta Osiyo gidrologiyasi bo‘yicha ilmiy ishlar O. P. Shcheglova va uning shogirdlari G. Ye. Glazirin, A. R. Rasulov, R. S. Saidova, F. Hikmatov va b.ning faoliyati bilan bog‘liq.

Respublikada sel oqimlarini geografik va gidrologik o‘rganish bilan F. K. Kocherga, P. M. Karpov, T. Mustafaqulov, R. G. Vafin, V. P. Pushkarenko, S. To‘laganov va A. Saidovlar shug‘ullandilar.

Gidrologik tadqiqotlar majmuida daryo o‘zanidagi dinamik jarayonlarni o‘rganish S. T. Altunin va A. M. Muhamedov rahbarligida amalga oshirildi.

1960-yillardan R. A. Alimov, A. 3. Zohidov, V. P. Svetitskiy, N. I. Zudina va b. obikor yerlar suv balansi va tuz rejimini o‘rganish bo‘iicha ishlar olib bordilar.

Xo‘jalikka xizmat ko‘rsatish nuqtai nazaridan gidrologik bashorat bo‘iicha o‘tkazilgan tadqiqotlar P. M. Mashukov va 3. V. Jorjiolar nomi bilan bog‘liq. Gidrologik jarayonlarni modellashtirish muammolari bo‘yicha Yu.N. Ivanov, Yu. M.

Denisovning tadqiqotlari diqqatga sazovor. Obikor dehqonchilik bilan bogʻliq gidrologiya muammolari ham olimlarning diqqat markazida boʻldi (G. N. Trofimov, N. K. Lukina, Ye. M. Vidineeva, Q. Domlajonov va b.).

N. L. Korjenevskiy 1930-yil Oʻrta Osiyo muzliklarining katalogi (jadvali)ni yaratdi va koʻpgina togʻ muzliklarini birinchi boʻlib tavsifladi. Keyinchalik Oʻzbekistonda G. Ye. Glazirin, V. G. Konovalov, V. F. Suslov, A. S. Shchetinnikov, V. Nozdryuxin, A. A. Kreyter, M. A. Nosirov, A. Akbarov kabi glyatsiolog mutaxassislar yetishib chiqdi.

Oʻrta Osiyo koʻllarini oʻrganishga olimlardan N. L. Korjenevskiy, L. A. Molchanov, N. G. Mallitskiy, A.M. Nikitin va b. hissa qoʻshdilar.

Oʻzbekistonda gidrometeorologik tadqiqotlarning asosiy markazlari V.A. Bugayev nomidagi Oʻrta Osiyo regional gidrometeorologiya ilmiy tadqiqot instituta (Toshkent), Oʻzbekiston Milliy universiteti, Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining Geologiya va geofizika hamda Suv muammolari institutlaridir.

Ilmiy va amaliy gidrologik tadqiqotlar asosan gidrometriya, suv eroziyasi va oʻzan jarayonlarini oʻrganish (A. R. Rasulov, T. Joʻrayev, S. R. Saidova, M. Mirziyotov, F. Xikmatov), gidrokimyo (E. Chembarisov, K. Domlajonov), gidroekologiya (A. Nazarov, A. Abdurahmonov, 3. Sirliboyeva), gidromelioratsiya (Sh. Yunusov, E. Joʻrabekov) va irrigatsiya tarixi (A. Razzoqov), suv resurslarini oʻrganish (Sh. Murodov, S. Karimov, U. Tursunov), muzlikshunoslik (M. A. Nosirov, A. Akbarov), koʻlshunoslik (O. Nuriddinov) kabi yoʻnalishlar boʻyicha muvaffaqiyatli davom etmoqda.

Tuproqlar geografiyasi. 1920-yil Oʻrta Osiyo universiteti tarkibidagi Tuproqshunoslik va geobotanika institutida tuproqshunos N. A. Dimo rahbarligida tuproq qoplami geografik landshaftlarning tarkibiy qismi va koʻzgusi, ayni vaqtda qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining asosi hamda resursi sifatida oʻrganildi.

Regional tuproqshunoslikning xilmaxil muammolari ustida A. M. Rasulov, A. Maksudov, H. Maqsudov va A. Neʼmatov, J. S. Sattorov va L. Tursunovlar tadqiqotlar olib borgan.

Oʻzbekistonda geografik tuproqshunoslik Oʻrta Osiyo tuproqlarini geografik, ekologik va geokimyoviy jihatdan oʻrganish asosida rivojlandi (Oʻ. Abdunazarov, H. Maʼsudov, L. Kamolov va b.).

Biogeografiya. Biogeografik tadqiqotlar maktabining asoschilari zoolog D. N. Kashkarov bilan botanik Ye. P. Korovindir.

Oʻzbekistonda biogeografik tadqiqotlar ayni vaktida ularning ikki asosiy tarmogʻi — botanik geografiya va zoogeografiya yoʻnalishlarida ham shakllandi. 1920—40 yillarda oʻlka oʻsimliklari va hayvonoti geografik-ekologik oʻrganildi (M. P. Popov, R. I. Abolin, Ye. P. Korovin, P. A. Baranov, I. A. Raykova, M. M. Sovetkina, I. I. Granitov).

O‘zbekistonda botanik geografiyaning rivojlanishi va milliy ilmiy kadrlarni yetishtirishda akademik K- 3. Zokirov va O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi I. I. Granitov salmoqli hissa qo‘shdilar.

1950-yillardan boshlab o‘simliklar geografiyasi, ekologiyasi va fiziologiyasi bo‘yicha o‘zbek botaniklaridan — M. M. Orifxonova, P. Q. Zokirov, X.

M. Oxunovning ilmiy asarlari bosilib chiqdi. Shuningdek, botanik-geografik ilmiy tadqiqotlar rivojiga D. K. Saidov, M. M. Nabiyeu, T. A. Odilov, O. X. Hasanov, A. I. Usmonov, O‘. Pratrov, S. S. Soatovlar ham muayyan hissa qo‘shdilar.

Hayvonlar geografiyasiga doyr tadqiqotlarni O‘zbekistonda zooekolog D. N. Kashkarov va zoogeograf N. A. Bobrinskiylar olib bordi. O‘zbekiston zoogeografiyasining keyingi rivoji T. 3. Zohidov, I. I. Kolesnikov, R. N. Meklenbursev, H. Solihboyev, G‘. S. Sultonov, V. P. Kostin, G. I. Ishunin va b.ning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Respublikada iqtisodiy va demogra-fik tadqiqotlar 1920-yillardan boshlangan. Iqtisodchi hamda geograflar G. N. Cherdansev, N. N. Kojanov, N. K. Yaroshevich, Yu. I. Poslavskiy, A. I. Golovin va b. iqtisodiy rayonlashtirishning nazariy va amaliy muammolari, O‘rta Osiyo ishlab chiqaruvchi kuchlarini hududiy joylashtirish hamda ri-vojlantirish masalalari, aholi va qishloq aholi turar joylarini mufassal o‘rganish muammolari bilan shug‘ullandilar.

50-yillarda 3. M. Akramov, K. N. Bedrinsev, K. I. Lapkinlar qishloq xo‘jaligini iqtisodiy tahlil qildilar.

50—60-yillarda O‘zbekistonning hududiy ishlab chiqaruvchi kuchlarini joylashtirish, majmual rivojlantirish, rayonlashtirish hamda bashorat qilish uch asosiy ilmiy yo‘nalish — qishloq xo‘jaligi geografiyasi, aholishunoslik, aholi geografiyasi va ijtimoiy geografiya yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borildi.

Iqtisodiy rayonlashtirish va majmual iqtisodiy geografik tadqiqotlar. O‘rta Osiyo va O‘zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish masalalariga 40-yillarda Toshkentda yashagan geograf V. M. Chetirkin katta e‘tibor berdi. Keyinchalik uning asosiy fikr va g‘oyalari Z.M. Akramov, K. N. Bedrinsev, A. K. Bedrinsev, I. K. Narziqulov va b.ning ijodiy izlanishlarida ri-vojlantirildi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. V. S. i dr., Geografiya v menyayushemsya mire. Vek XX. M., 1997, 274 s; Hasanov H., O‘rtaosiyolik geograf va sayyohlar, T., 1964; Qoriyev M., O‘rta Osiyo tabiiy geografiney, 2-nashr, T., 1968.
2. Ziyovuddin Akramov, Asomiddin Rafitsov, Shuhrat Azimo [O‘zME](http://www.newjournal.org/). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil